O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOIN STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”
42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 28-sentabr
01-02-20/8676-son

"NARPAY INVIST" MChJga

nusxasi: **"O‘zenergoinspeksiya"ning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga**

"Samarqand MET" filialiga

2026-yil 21-sentabrdagi
1/9-sonli xatga asosan

Samarqand viloyati, Narpay tumani "Oq oltin" MFY, Oq oltin ko‘chasida joylashgan elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha ***III toifa***, ruxsat etilgan quvvati ***800 kVt*** bo‘lgan ***"NARPAY INVIST" MChJ***ga tegishli obyektni transformator punkti qurgan holda "Samarqand MET" filiali tasarrufidagi ***35/10 kVli "Nasosnaya -Narpay" PS***ning ***10 kV*** taqsimlash qurilmasiga ulash yuzasidan quyidagi ***texnik shartlar***ning bajarilishi talab etiladi:

1. Iste’molchi obyekti hududining iste’mol markazida 10/0,4 kV transformator punkti *(TP)* qurilsin. Transformator punkti, transformatorlar turi, soni va quvvati, asosiy va yordamchi elektr qurilmalarining hajmi loyiha bilan aniqlansin.

2. Elektr ta’minotini 35/10 kVli "Nasosnaya-Narpay" PSning 10 kVli taqsimlash qurilmalarini kengaytirish yo‘li bilan, alohida zamonaviy turdagi yacheyka o‘rnatilib, loyihalashtirilayotgan TPgacha 10 kVli elektr uzatish tarmoqlarini qurish orqali amalga oshirilsin. Shuningdek, o‘rnatiladigan yacheykaning muvofiqlik sertifikati mavjudligiga alohida e’tibor berilsin.

Ish hajmi, yacheyka turi, elektr uzatish tarmoqlarining turi, uzunligi, o‘tkazgich kesimi yuzasi, ulanish nuqtasi va qo‘shimcha o‘rnatilishi zarur bo‘lgan uskunalar loyiha bilan aniqlansin.

3. 35/10 kVli "Nasosnaya-Narpay" PSning ulanma ta’sir etuvchi barcha birlamchi va ikkilamchi elektr qurilmalarining jumladan, T-1 va T-2 kuch transformatorlari, 10 kV kirish o‘chirgichlari, 10 kV I va II shinalar seksiyalari, seksiyalararo o‘chirgich (MSV) yacheykasi, o‘lchov tok transformatorlari va

boshqa yordamchi elektr qurilmalarining qo‘shimcha yuklama ko‘tarish qobiliyati loyihada hisob-kitob qilinsin.

Hisob-kitob natijasiga asosan ish hajmi, 10 kVli taqsimlash qurilmalarining yuqori quvvatlisiga almashtirilishi zarur bo‘lgan qurilmalari turi, quvvati, qo‘shimcha o‘rnatilishi zarur bo‘lgan uskunalar loyihada aniqlansin va tegishli xulosalar berilib, almashtirish ishlari loyiha doirasida bajarilsin

Loyihalash jarayonida 10 kV shinalar seksiyasini kengaytirish yo‘li bilan yangi yacheyka o‘rnatish uchun podstansiya hududini kengaytirish ko‘zda tutilsa, ushbu hajmda loyihaning qurilish qismi ishlab chiqilsin.

4. Barcha loyihalash va qurilish ishlarini "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari", "Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari", "Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalari" va boshqa normativ texnik hujjatlar talablariga asosan amalga oshirilsin.

5. "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari"ning 236-bandi talablari to‘liq inobatga olinsin. Reaktiv quvvatni kompensatsiya qiluvchi qurilma o‘rnatilsin va qurilmaning quvvati, rusumi loyihada aniqlansin.

6. Loyihalashtirilayotgan 10 kV elektr uzatish tarmoqlarining dastlabki trassa rejasi tegishli tashkilotlar bilan kelishilsin.

7. Loyihalashtirilayotgan 10 kV elektr uzatish tarmog‘ining podstansiyadan o‘tuvchi qismi kabel lotoklarida yotqizilishi hamda kabellarning ushbu qismida zamonaviy turdagi yong‘inga qarshi himoyalash moslamalarining qo‘llanilishi loyihada ko‘rsatilsin.

PS hududidan o‘tadigan kabel tarmog‘ini yangi kabel kanallarida yotqizish loyihada inobatga olinsin.

8. Yangi obyektlar qurilishi bo‘yicha yer uchastkasi uchun kadastr hujjatlari tayyorlansin.

9. Elektr energiyasi hisobi:

9.1. Elektr uskunalarining balans mansublik chegarasida zamonaviy elektr hisoblagichlar o‘rnatilsin. Balans mansublik chegarasi bo‘yicha dalolatnoma tuzilsin va mazkur dalolatnoma tasdiqlash uchun "Samarqand MET" filialiga kiritilsin.

9.2. O‘rnatilgan elektr hisoblagichlar belgilangan tarif tizimiga mos ravishda dasturlangan bo‘lishi ta’minlansin.

9.3. O‘lchov asboblarining (hisoblagichlarning) ulanish sxemalari to‘g‘riligi tekshirilib, belgilangan tartibda muhrlansin.

9.4. Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (AIIS KUE) joriy qilinsin.

9.5. AIIS KUE tizimi (O‘zDSt 8.079:2018 va O‘zDSt 1987:2018) milliy standartlari talablariga asosan ishlab chiqilsin.

9.6. Respublikada joriy qilingan CAS (Central AMI Systems - Markaziy takomillashtirilgan o‘lchash infratuzilmasi tizimi) markaziy dasturiy ta’minotiga ma’lumotlarning onlayn rejimida uzatilishi ta’minlansin.

10. **RHA qismida:**

10.1. Yangi o‘rnatiladigan elektr uskunalari uchun "Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari" *(PUE)* talablariga, podstansiyalarni qurish normalariga va "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari"ga muvofiq yetarli hajmda rele himoyasi va avtomatikasi *(RHA)* loyihasi ishlab chiqilsin.

10.2. Loyihada zamonaviy mikroprotsessorli RHA qurilmalari o‘rnatilishi ko‘zda tutilsin.

10.3. Loyihada 35/10 kVli "Nasosnaya Narpay" PSdan chiquvchi yangi 10 kV elektr tarmog‘i yacheykasi uchun yetarli hajmda rele himoyasi ko‘zda tutilsin. Bunda yer bilan tutashuv himoyasi *(O33)* o‘chirish uchun ishlashi shartligi hisobga olinsin.

10.4. Yangi o‘rnatiladigan RHA qurilmalarida montaj va sozlash ishlari bajarilsin, ishga tushirish-sozlash ishlarining protokollari taqdim qilinsin.

10.5. Rele himoyasi va avtomatikasi loyihasida yangi uskunalar uchun prinsipial sxemalar, ustavka tanlash uchun hisob-kitoblar hamda bu ustavkalarning topshiriq blankalari bo‘lishi shart. Hisoblangan ustavkalar YETga va “Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari”ga muvofiqligi ta’minlansin. Texnik hujjat va “ustavka”larni tanlash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar davlat va rus tilida taqdim etilsin.

10.6. RHA loyihasi "O‘zbekiston MET" AJ bilan oldindan kelishilsin.

11. Podstansiyada o‘rnatiladigan yacheyka va kabel tarmog‘i egallagan yer maydoni uchun "Samarqand MET" filiali bilan yerga oid ijarasi shartnomasi tuzilsin.

12. Loyihani amalga oshirishda "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari"ning 4-bobi 1, 2 va 4-paragraflari talablari inobatga olinsin.

13. Mazkur texnik shartlarga asosan bajarilgan loyiha ishlari Foydalanuvchi tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng "O‘zenergoinspeksiya"ning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi va "O‘zbekiston MET" AJ bilan kelishilsin.

14. Podstansiyada yangi o‘rnatilayotgan uskunalarga vakolatli tashkilotlar tomonidan texnik xizmat ko‘rsatish ko‘zda tutilsin.

15. "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari"ning 85, 92 va 96-bandlari talablari to‘liq inobatga olinsin.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: QH29133660

16. Mazkur **texnik shartlar**ning **amal qilish muddati** berilgan sanadan boshlab - **bir yil**.

Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari
B. Murodov

Ijrochi: ETUQQB
Telefon: (+99871) 236-60-85